



ABDULLA QODIRIY AND PROSE LINGUOPOETICS

Urak Pazilovich Lafasov

*Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan*

lafas1963@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-0557-3476>

<https://doi.org/10.36078/1783403384>

Abstract. This article emphasizes that linguopoetics is a new direction in world linguistics that was formed much later, based on the study of poetic works. The artistic attractiveness of prose works in the East, linguopoetics the basis of linguopoetics in linguistics and literary studies, and the means of artistic expression that are part of language and speech are discussed. In this regard, the interpretation and content of the term linguopoetics are emphasized. The main goal of this area is to determine the artistic depiction of stylistically coloured lexical units in the text and to provide a rational description of aesthetic writing, as well as to study artistic texts that represent the national and spiritual wealth of each nation. Information is provided on the origins of linguopoetic studies in linguistics and on scientific research in this area. The necessary materials have been prepared for the study of linguopoetic means in the works of Abdulla Qadiri that reflect the high level of Uzbek communicative culture. The term linguopoetics, the restoration of linguopoetic means in the literary text, information about the writer's personal data is given in a spherical form. The construction of language units, from simple content to linguopoetics that give aesthetic pleasure, is proven. The study of the life and work of Abdulla Qadiri traces the related publication and translation of his books, and information about scientists who studied the image of the writer is presented. Candidate dissertations and militant novels written by literary scholars in response to the scientific ideas of Abdulla Qodiriy are listed. The basis of Abdulla Qodiriy's interpersonal relations according to world laws is laid. The writer's novels, which are the source of the continuation of the Uzbek people's oral creativity, are distinguished by the emergence of novelism in Central Asia.

Keywords: linguopoetics; Western literature; Eastern literature; prose works; language and speech units; aesthetic impact; source; Abdulla Qodiriy; original novels; national novel-writing tradition.

ABDULLA QODIRIY VA NASRIY LINGVOPOETIKA

Urak Pazilovich Lafasov

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida lingvopoetika ancha keyin shakllangan yangi yo'nalish ekanligi, nazmiy asarlar tadqiq qilinganligi aytib o'tilgan. Sharqdagi nasriy asarlarning badiiy jozibadorligi lingvopoetik tahlil uchun asos bo'lishi, lingvopoetika tilshunoslik va adabiyotshunoslikning mushtarakligi, til va nutq birliklarining badiiy tasvir vositalari vobastaliligiga asoslanishi aytilgan, lingvopoetika terminining izohi va mazmuniga e'tibor qaratilgan. Mazkur sohaning asosiy maqsadi matndagi uslubiy bo'yoqli lug'aviy birliklarning badiiy ifodasi va estetik ta'sirini asosli tavsiflash, har bir millat uchun milliy va ma'naviy boyluk sanalgan badiiy matnlarni tadqiq qilish ekanligi izohlangan. Til ilmida lingvopoetik tahlilning boshlanishi va shu sohaga oid ilmiy tadqiqotlar haqida ma'lumot berilgan. Abdulla Qodiriyning o'zbekona muomala madaniyatining yuqori darajasini aks etgan ohoriy asarlaridagi lingvopoetik vositalarni chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Lingvopoetika terminining ma'nolari, badiiy matndagi lingvopoetik vositalarni tahlil qilish, badiiy san'atlarning ta'sirchanligini yuzaga chiqarishda yozuvchining shaxsiy mahorati muhimligi sharhlangan. Til birliklarining oddiy ifodadan estetik zavq beruvchi lingvopoetik unsurga aylanishi isbotlab berilgan. Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodini o'rganish, asarlarining nashri hamda tarjimai bilan bog'liq izohlar, adib ijodini o'rgangan olimlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Adabiyotshunos olimlarning Abdulla Qodiriy va uning romanlari to'g'risida ilmiy fikrlariga munosabat bildirilgan hamda yozilgan nomzodlik dissertatsiyalar sanab o'tilgan. Jahon adabiyotidan bahra olib yozilgan Abdulla Qodiriyning ohoriy romanlariga mavjud tuzum tarafdorlarining bildirilgan salbiy munosabatlarining asosligi sharhlangan. Adibning o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini manba qilib olgan romanlari sababli O'rta Osiyoda romanchilik yuzaga kelganligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika; Botish adabiyoti; Chiqish adabiyoti; nasriy asarlar; til va nutq birliklari; estetik ta'sir; manba; Abdulla Qodiriy; ohoriy romanlar; milliy romanchilik.

Kirish

Dunyo tilshunosligida lingvopoetika ancha keyin shakllangan yangi yo'nalish bo'lib, unda, asosan, nazmiy asarlar tadqiq qilingan. Buning asl sababi Botish//G'arb adabiyotidagi nasriy asarlarda tabiat, yashash sharoiti,

dunyoqarash va diniy aqidalar badiiy ifodalarning Chiqish//Sharq adabiyotidan farqlanishidadir. Aslida lingvopoetika sohasi tilshunoslik va adabiyotshunoslikni mushtarak o'rganishni nazarda tutadi. Badiiy matndagi lingvopoetik vositalar tahlili nazariy jihatdan ancha murakkab masala sanaladi. Lingvopoetika badiiy asarda qo'llangan til va nutq birliklarining badiiy tasvir vositalari vobastaliligiga asoslanadi. Yozuvchining lug'aviy birliklardan badiiy tasvir vositasi sifatida qay darajada mahorat bilan foydalana olgani, ular asarning estetik ta'sir kuchini qay shaklda ta'minlay olgani nazariy hamda amaliy tahlil uchun muhim dalil hisoblanadi. Bu esa asosli va chuqur tahlildan so'ng zaruriy xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga keltiradi.

“*Lingvopoetika*” terminining izohiga keladigan bo'lsak, mazkur atama lotincha “*lingua*” va fransuzcha “*linguistique*” — “*til*”, yunoncha “*poietike*” — “*san'at*” ifodalarining birikuvidan yuzaga kelgan bo'lib, “*til san'ati*”, ya'ni “*so'z san'ati*” mazmunlarini bildiradi.

XX asrgacha jahondagi juda ko'p ilmiy tadqiqotlarda *til va adabiyot sohalari ayri holda*, bir-biridan ajratib o'rganilgan. Bu holat esa har qanday matnning tili hamda badiiyatidagi o'zaro mutanosibligiga zarar yetkazib kelgan. Vaqt o'tib ilmiy sohadagi ushbu ulkan qusurga barham berish maqsadida filologiyaning yangi sohasi lingvopoetika yuzaga keldi. ***Lingvopoetika*** (*lingvistik poetika*) — filologiyaning bo'limlaridan biri bo'lib, unda ***badiiy matndagi uslubiy bo'yoqli til birliklarining*** muayyan g'oyaviy-badiiy ***mazmun*** ifodalashi va ***estetik ta'sir yaratish*** masalasi tadqiq qilinadi [Zadornova 1992: 14]. Mazkur sohaning asosiy maqsadi matndagi uslubiy bo'yoqli lug'aviy birliklarning badiiy ifodasi va estetik ta'sirini asosli tavsiflashdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda har bir millat uchun milliy va ma'naviy boylik sanalgan badiiy matnlar o'rganiladi.

Hozirgi zamon til ilmida alohida matnlarni lingvopoetik tahlil qilish an'anasini rus tilshunosligida akademik V. V. Vinogradov o'zining ilmiy ishlarida boshlab bergan [Lipgart 2022: 13]. Ammo turkiy tilshunoslikda ushbu tahlilga tegishli qaydlarni Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ko'rish mumkin. Hozirgi o'zbek tilshunosligida bir necha tadqiqotchilar shu sohada ilmiy ish olib borishgan. Mazkur tadqiqotlarda ushbu yo'nalishning

umumiy jihatlaridan ayrim qismlarini yoritishga harakat qilingan [Yuldashev 2009: 48].

O‘zbek milliy adabiyotining nasriy yo‘nalishida Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlari o‘zbekona ohoriy [Lafasov 2020: 1851] asarlar sifatida muhim ahamiyatga egadir. Adib ushbu romanlari bilan dunyodagi **oltinchi o‘zbek milliy romanchiligiga** asos solgan [Qodiriy Xondamir 2004: 15]. Shuning uchun Julqunboyning asarlaridagi lingvopoetik vositalarni chuqur o‘rganish lozimdir. Abdulla Qodiriy boshlab bergan yangi romanchilik yo‘nalishi bois keyinchalik O‘rta Osiyoda qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq va qirg‘iz romanchiliklari shakllandi. Ammo ushbu maktablarda yaratilgan asarlar milliy roman maqomiga hali erishgani yo‘q.

Lingvopoetika — lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo‘lib, badiiy asarlarda qo‘llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshqalar) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika badiiy nutqni o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limidir [Nurmonov, Iskandarova 2007: 163].

Lingvopoetika — badiiy asarda qo‘llangan *til vositalari yig‘indisi* bo‘lib, yozuvchi ushbu unsurlar yordamida o‘z asarining **bayon usuli, tasvir vositalari, badiiy-g‘oyaviy mohiyati** hamda **estetik ta’sir kuchini** oshirib boradi [Zadornova 1992: 20]. Har qanday badiiy matn kitobxonga nafasot zavqini baxsh etsagina qadrlanadi. Buning uchun yozuvchi o‘z millatining ruhiyati, xalq og‘zaki ijodi, ona tilining so‘z boyligi va badiiy tasvir vositalarini yuksak darajada bilishi hamda qo‘llay olishi kerak. Shundagina milliy tilning ifoda ko‘lami, beqiyos tasvir ifodalari mukammal tarzda yuzaga chiqadi. Ana shu vositalar esa lingvopoetik unsurlar sifatida tavsiflanadi.

Tilshunos olimlar o‘zlarining nazariy tahlillariga asoslanib, **“lingvopoetika”** terminining ikki ma’nosini qayd etishgan. **Birinchisi** alohida badiiy uslubni yoki biror asarda uslubiy vositalarning to‘liq manzarasini ochib berish bo‘lsa, **ikkinchisi** badiiy matndagi til birliklarining g‘oyaviy-badiiy mazmun ifodalashi hamda **estetik ta’sir qilishdagi o‘rni va vazifasini aniqlashga qaratilgan alohida tadqiqotdir** [Lipgart 2022: 8]. Ushbu mezonlarga tayanib shuni aytish mumkinki, birinchi izohga ko‘ra, **matn stilistik tavsiflarning qay darajadiligiga ko‘ra** tahlil qilinadi, ikkinchi qoidaga ko‘ra **matndagi til birliklarining g‘oyaviy-**

badiiy mazmun ifodalashi va estetik ta'sir ko'rsatish holatiga ko'ra tavsiflanadi. Ilmiy izohlarga asoslanadigan bo'lsak, "matnni lingvopoetika nuqtayi nazaridan o'rganish u yoki bu uslublarni yoxud til vositalarini shunchaki o'rganish emas, balki badiiy asarning estetik ta'sirga xizmat qiladigan lug'aviy birliklar vazifasini aniqlashga qaratilgan [Zadornova 1992: 22]". Darhaqiqat, badiiy matndagi lingvopoetik vositalarni tahlil qilishda **ularning estetik ta'siri muhim mezon** hisoblanadi. Badiiy asarda so'z jozibasi va badiiy san'atlarning ta'sirchanligini yuzaga chiqarish yozuvchining shaxsiy mahoratiga bog'liqdir. Shunday ekan, badiiy matnning lingvopoetik tahlilida ana shu holatni yuzaga chiqaruvchi vositalar muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy nuqtayi nazardan ma'lum asarlardagi *lingvopoetik vositalar tahlilining maqsadi — tilning u yoki bu birligi muallif tomonidan qay darajada mahorat bilan badiiy ijod unsuriga aylantirilganligi, ushbu til vositalarining estetik ta'sir kuchini qay darajada yuzaga chiqara olganini aniqlashdan iborat* [Lipgart 1992: 60].

Har bir adib o'z asarlaridagi til birliklarini uzoq tanlaydi, o'z o'rnida mahorat bilan qo'llashga intiladi. Abdulla Qodiriy romanlarni o'qish jarayonida biz bunga amin bo'lib boramiz. Tilshunos olim Abdulhamid Nurmonov til birliklariga *fonema, morfema, leksema, frazema*; nutq birliklariga esa *tovush//allofon, allomorfi, alloleks va allofrazema* kirishini qayd etgan [Nurmonov 2012: 117].

Har qanday lingvopoetik vositalar [Lafasov 2025: 537] tahlili til birliklari izohiga asoslanishini nazarda tutadigan bo'lsak, ilmiy tahlil jarayonida ana shu til birliklarining qay darajada mohirlik bilan ishlatilganiga e'tiborni qaratishimizga to'g'ri keladi.

Har bir ijodkorni esa o'z zamonasi tarbiyalaydi. Adib o'sha davr farzandi, shu bois o'z zamonasining insonlariga xos mushohada yuritadi. U keltirgan dalillar oldin o'sha millat adabiyotida o'z isbotini topgan va davr chig'irig'idan o'tib o'sha paytgacha yetib kelgan bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan adabiyotdagi janrlar yangilanishi mumkin. Biroq tasvirdagi asliyat, ya'ni ruhiyatdagi milliy xususiyat saqlanib qolaveradi.

Har qanday matn so'zlar, ularning o'zaro bog'lanishi yordamida shakllanadi. Shunday ekan, so'z, ya'ni materialning ishlatilishi badiiylikni belgilab beradi. Shundan so'ng so'z oddiy ifodadan estetik zavq beruvchi

lingvopoetik unsurga aylanib, kitobxonning idrok etishi natijasida ma'naviy dunyosiga ta'sir etib, estetik ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Abdulla Qodiriyning ijodini o'rganish XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Mazkur jarayonga xassos o'zbek adibining noyob talantiga qoyil qolish, unga tan berish uchun emas, balki bu ulug' insonni, buyuk yozuvchini badnom qilish niyatida mazkur ishga qo'l urilgan [Husayn 1931: 4] va ushbu manfur kimsalar [Sheverdin 1931: 2] o'zlarining qora niyatlariga ham erishdilar, ya'ni afif yozuvchini "xalq dushmani" sifatida otib o'ldirilishini ta'minlab berdilar.

Biroq xalqimiz ta'biri bilan aytganda, haqiqat egiladi, bukiladi, lekin sinmaydi. Qizil imperiyaning dohiylaridan biri Stalin vafotidan so'ng qatag'on qurbonlarining nomi va asarlarini oqlash boshlandi. Shundan so'nggina o'zbek adabiyotshunoslari Abdulla Qodiriy ijodi haqida iliq fikrlarni aytishga jur'at eta olganlar [Izzat Sulton 1956: 3]. Ammo yozuvchining asarlaridagi millat ravnaqi uchun o'zaro jipslik va milliy mustaqillikka aloqador joylari olib tashlangan holda nashr etilgan. "*O'tkan kunlar*", "*Mehrobdan chayon*" tarixiy romanlari va "*Obid ketmon*" qissasining qisqartirilgan nusxasi rus tiliga, qardosh va xorijiy xalqlar tillariga tarjima qilindi. Buning natijasida Abdulla Qodiriy asarlarining kitobxonlari doirasi keskin darajada kengayib bordi. Jahondagi adabiyot ixlosmandlari orasida adibning ijodiga qiziqish juda ortib ketdi va yozuvchining asarlari xorijiy tillarga tarjima qilina boshlandi [Mirzaev 1977: 5]. Lekin eng achinarlisi, ushbu tarjimalarda yozuvchining millatparvarlik ruhida kuyunchaklik bilan yozgan shoh satrlari o'z aksini topmagan edi. Sho'ro davrida ilmiy tadqiqot olib borgan o'zbek olimlari Abdulla Qodiriy ijodi va asarlarining ko'p jihatlariga munosabat bildirib, o'sha tuzum manfaati nuqtayi nazaridan tahlil qilishgan, ayrim hollardagina milliylikka e'tibor qaratishga jazm qilishgan. O'sha davrda yashagan ijodkor olimlardan M. Qo'shjonov, L. Qayumov, H. Abdusamatov, S. Mirvaliev, A. Aliev, B. Imomov, U. Normatov, A. Quljonov, Sh. Turdiev, F. Nasriddinov va boshqalar Abdulla Qodiriy ijodi to'g'risida maqolalar hamda kitoblar yozishdi. Ammo mazkur ilmiy tadqiqot ishlari qachon va kim tomonidan yozilganligiga ko'ra keskin farqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat bo‘lgandan so‘ng, sho‘ro davrida qatag‘onga uchragan, asarlari taqiqlangan adiblarning hayotini chuqur o‘rganish yo‘lga boshlandi. Ularning asarlarini asl holicha (*ko‘pchiligi sho‘ro davrida o‘zgartirilib zamonga moslashtirilgan edi*) chop etish yo‘lga qo‘yildi. Xassos adibimiz, o‘zbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi to‘laligicha kitobxonlarga yetkazila boshlandi [Qodiriy 1994: 3]. Asarlari esa asl holicha o‘z muxlislari qo‘liga yetib bora boshladi. Adib millatimizning o‘tmish tarixini xalqimizga ibratli tarzda yetkazib berish uchun o‘z umrini bag‘ishlagan. Yozuvchi yuksak badiiyat, chuqur hayotiy xulosalarga boy tarzda romanlar ijod qilgan. Shuning uchun ham hali-hanuz uning asarlari xalqimiz tomonidan sevib o‘qilmoqda.

Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov ilk bor mo‘jazgina risolasida “*o‘zbek deganda xayolimga birinchi galda Abdulla Qodiriy siy mosi keladi, chunki uning romanlarida asl o‘zbekona hayot tarzi, o‘zbek millatining ruhiyati, ma‘naviy qiyofasi yorqin aks etgan* [Qo‘shjonov 1994: 3]”, — deb ta‘kidlagan edi. Matyoqub Qo‘shjonov o‘z tadqiqotida Abdulla Qodiriyning “*O‘tkan kunlar*”, ya‘ni birinchi romanidagi adibga xos xarakter yaratish, sirli bayon qilish, qahramonni og‘ir vaziyatga solish, tugunlar birligi, keskin o‘zgarish, teskari o‘zgarish (*perepetiya*), sovuqqonlik bilan kuzatish, o‘zgacha yo‘l tutish, tugunlarni estetik va realistik usul bilan yechish, antiteza usulidan foydalanish, insoniy go‘zallik, ziddiyat tug‘diruvchi kuchlar, tasvir ixchamligi, ruhiy surat (*psixologik kartina*), og‘ir vaziyatlar va voqealar rivojini tayyorlash, g‘oyaviy birlik, alangalar iskanjasiga olish va ishonarli tasvir mahorati kabi holatlarni dalillar bilan asoslab tahlil qilib bergan.

So‘z ilmi bilimdoni Matyoqub Qo‘shjonov yozuvchining ikkinchi asari “*Mehrobdan chayon*” haqida fikr bildirib, uning “*O‘tkan kunlar*” romanidan farqli jihatlarini astoydil ochib berishga kirishadi. Avvalo roman qahramonlarning siyratiga mos ajoyib sarlavhani ijod qilgan: “*Yigitlarning sarasi, gullarning ra‘nosi*” [Qo‘shjonov 1994: 70]. Birinchi roman nashridan so‘ng Abdulla Qodiriyga otilgan malomat toshlariga javob tarzida yozilgan “*Mehrobdan chayon*” asarini keng jabhada izohlab bergan. Adibning hayotiy mantiq asosida qahramonlariga mos va ayricha fe‘l-atvorlarni, keskin farqlanuvchi, o‘zgacha jihatlarini izlab topgan holda badiiy to‘qimalar yaratganligini sharhlagan. Jumladan, Solih Mahdumdagi

ziqnalik, Anvardagi o'ta kamtarlik, Ra'nodagi shaddodlik, Nigor oyimdagi murosasozlik, Mohlaroyimdagi mardlik, Sultonalidagi sadoqat, mulla Abdurahmondagi qabihlik, Xudoyorxondagi zulm va boshqalar. Yozuvchi ana shu jihatlar asosida ma'lum bir timsol (obraz)ga aloqador konflikt tugunini yaratganligi izohlangan. Yozuvchining kitobxonga havola qilgan keyingi tuguni Qo'qon xonligi davridagi saroy ahli, xususan, Xudoyorxonning xotin-qizlarga munosabatidir, deb yorqinlashtiradi adabiyotshunos. Adib xon hayotining bu jihatini to'laroq ko'rsatish uchun Gulshanbonu obrazini tanlangan. Abdulla Qodiriy kitobxonni xon saroyi, haram bilan tanishtiradi va shu asnoda o'z oldiga qo'ygan maqsadni ochiq tushuntiradi. Asardagi jasoratli va mard qiz Ra'no obrazi erkak libosini kiyib, o'z haq-huquqi uchun kurashgan, hatto vatanni himoya qilgan, xalq manfaati yo'lida ot minib qilich tortgan va qahramonlik ko'rsatgan To'maris, Qurbonjon dodxoh kabi momolarimizning timsollaridan ruhlanib yaratilgan. Yozuvchi ushbu romanida ham voqealarning kutilmagan, keskin burilishlaridan foydalangan. Adib tahlikali vaziyatlarni yuzaga keltirib, qahramonlarni og'ir vaziyatga solib qo'ygan. Abdulla Qodiriy og'ir vaziyatlar orqali obrazlarning asosiy xislat va qirralarini bosqichma-bosqich ochib borgan. Yozuvchi o'z romanida hayotiy, ishonarli dalillardan ko'p foydalangan. Matyoqub Qo'shjonov yozuvchi ishlatgan keskin burilishlarga ikki jihatdan baho berib, ushbu asoslar bir tomondan *xalq og'zaki ijodining ta'siri* bo'lsa, ikkinchi tomondan, Abdulla Qodiriyga xos *ijodiy usul (priyom)* ekanligini ta'kidlagan [Qo'shjonov 1994, 96]. Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonov o'z davrida Abdulla Qodiriy ijodi va romanlari haqida juda qimmatli hamda muhim ilmiy xulosalarni bergan va ushbu ilmiy dalillar hozir ham o'zining ilmiy qimmatini yo'qotgani yo'q.

Matyoqub Qo'shjonov "Mehrobdan chayon" romanini tahlil qilar ekan, yozuvchining ilmoqli obrazlar, bog'lovchi voqealardan foydalanganligini e'tirof etgan. Asardagi boshqa har bir obraz bosh qahramonlarga tegishli ba'zi ma'lumotlarni bir-biriga bog'lash, ayrim joylarda bosh obrazlar xarakterini tipiklashtirishda yordamchi vazifalarni bajarganligini tavsiflaydi. Ayniqsa, bu holatlar Qobilboy va uning do'stlari, Safar bo'zchi, kanizak Nozik, xonning qiziqchilari timsollarida mujassamligi qayd etilgan. Adabiyotshunos olim asar oxiridagi epilog voqealar yechimida yuksak ma'noni ifodalaganligini qayd etgan. Olim har ikki romanning fojiali yakuni, Anvarning isyonkor emas, balki murosasozligini ochar ekan,

o‘zbekimga xos yana bir yangi qiyofani yaratganligini ta’kidlaydi. Keyinchalik Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani poetikasiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini Aliboy Qahramonov [Qahramonov 2000: 23] himoya qilgan.

Matyoqub Qo‘shjonov adib ma’naviyatining mustaqillik, ozodlik uchun xizmat qilganini sharhlar ekan, romandagi milliylik va milliy ruhiyat Abdulla Qodiriyga xos shaxsiy fazilat ekanligini oydinlashtirib bergan. Adibga xos fazilat zamirida sharqona *o‘kuzbek* (*o‘zbek*) ruhiyati [Lafasov 2024: 310] barq urib turganligi kashf etilgan.

O‘rni kelganda shuni aytish joizki, adib boshqa millat yozuvchilariga taqlid bo‘lmasligi uchun *o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi dalillardan* mohirona foydalangan holda *ohoriy milliy romanchilik maktabiga* asos soldi. Aks holda Abdulla Qodiriy ham boshqa *Chiqish* (*Sharq*) romannavis adiblari kabi *Botish* (*G‘arb*) adabiyotiga *o‘xshatma* (*taqlidiy*) asar yaratgan bo‘lar edi.

Yozuvchining yuksak madaniyat, odamiylik talabiga xos aqidalarimizga asoslangan holda Yofas//Tur ibn Nuh zurriyotlari bo‘lgan *turlar* va *tur+uk* (turkiy)larning aslzodasi bo‘lgan *o‘kuzbek* ruhiyatidan kelib chiqqan holda tom ma’nodagi *o‘zbekning* obrazlarini yaratganligi taxsinga loyiqdir.

Xassos san’atkor yaratgan obrazlar o‘zbeklarni bir asr davomida “*savodsiz, madaniyatsiz*” deb jar solgan befarosat “*og‘a*”larning fikrlarini yer bilan yakson qildi. Bu achchiq dalilga chiday olmagan Mixail Sheverdin boshchiligidagi sho‘roning millatchi shovinistlari va ularning ayrim mahalliy laychalari o‘z maqolalarida Abdulla Qodiriyning keskin tanqid ostiga oldilar. *Bu salbiy munosabatdan qat’i nazar Abdulla Qodiriy ijodida sharqona ruhiyat, o‘zbek dunyoqarashi barq urib turar edi* [Qo‘shjonov 1994: 114]. Adib asarlarida ijod qilingan barcha obrazlarning fe‘l-atvori mukammal darajada ishlangan. Yozuvchi xalqimizning ilg‘or vakillari obrazlarini yaratar ekan, ularning madaniy saviyasiga, axloqiy sifatlariga alohida diqqat qaratgan. So‘z san’atkori uzoq mehnat qilib asarlariga faqat asl o‘zbekona milliy so‘zlashuv nutqi namunalarini olib kirdi. Mazkur muloqotda aslzodalarga xos o‘kuzbekona yuksak madaniyat aks etgan edi. Yuqori tabaqaga mansub bo‘lgan o‘zbeklarning muomala madaniyati hech qachon o‘zgarmagan, har doim o‘zligini namoyon etgan holda hamma uchun bir xil tarzda qo‘llangan. Past tabaqaga mansub, aslida turkiy el

bo‘lmagan, ularning tilini o‘rganib orasiga qo‘shilgan kelgindi xalqlarning o‘zbeklarga hasad qilishi natijasidagi sotqinlik tufayli boyligi ko‘paygan sari manmanlik chuqur ildiz otib borgan, bu holatni hozirgi jamiyatimizda ham ko‘rishimiz mumkin.

Adib xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyotimiz va jahon adabiyotini namunalarini, jumladan, *Valter Skott, Jo‘rji Zaydon* asarlarini yaxshi o‘rganganligi bois uzoq andisha qilib obraz yaratishning o‘zbekona uslubni topishga jazm qilgan. Eng muhimi Abdulla Qodiriy aslzoda o‘kuzbekni o‘zbekligicha tasvirley olgan. Adib o‘z asarlari qahramonlarga nom tanlashda ham ismning jismga mosligiga alohida e‘tibor qaratgan. Ismlarni esa voqealar tizimiga chuqur singdirib yuborgan. Obrazlarning surat va siyratida milliy ruhiyat va elnur//madaniyat yarq etib ko‘zga tashlanadi. Asar voqealarida ham o‘zbekona andisha ota-ona va farzandlar, ustoz va shogirdlar o‘rtasidagi muomala madaniyatida yorqin aks ettirilgan. Yozuvchi ushbu tasvir orqali “*katta og‘a*”larning yarim asrlik “*madaniyatsizlik*” haqidagi soxta da‘volariga qaqshatqich zarba bergan va kim madaniyatsiz ekanligini oshkor qilgan. Bundan esankiragan Mixail Shverdin telbalarcha tutoqib “Pravda Vostoka” gazetasining 1931-yil 15-yanvar sonida “*O‘zbek yo‘qsul adabiyotining ilk katta asari*” [Qo‘shjonov 1994: 116] maqolasini e‘lon qildi. Shu bilan u millati o‘zbek bo‘lmagan g‘alamis sotqinlar uchun Abdulla Qodiriy qoralashga yo‘l ochib berdi. Shundan so‘ng adib to‘g‘risida turli tuhmat va bo‘htonlardan iborat maqola hamda kitoblar paydo bo‘ldi. Ammo adolat baribir qaror topadi, shuning uchun ular qancha chiransalar ham adibning nomini va asarlarini badnom qila olmadilar.

So‘z san‘atkorining asarlarida o‘zi shaxsan hayotiy tajribada tekshirib ko‘rgan dramatik o‘rinlar shunchalik bisyorki, ularni ta‘riflash uchun yuzlab kitoblar kamlik qiladi. Abdulla Qodiriy asarlaridagi voqealarning yanada yorqinligini ta‘minlash uchun o‘zbek xalq dostonlarida bisyor tarzda qo‘llangan maktub usuliga murojaat qilgan. “O‘tkan kunlar” romanidagi maktublarning tili, badiiy jozibasi va betakror xususiyatlari bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida nomzodlik dissertatsiyasi [Chorieva 2006: 23] himoya qilingan. Romandagi xatlar o‘sha davr ziyolilarining saviyasi va bilim darajasini tasdiqlovchi asosiy dalillardir.

Yozuvchi romanlaridagi qahramonlar nutqida o‘zbekona muomala madaniyati yuqori darajasidan unumli foydalangan. Unda jozibali ifodalar

va imo-ishorali nigoh mimikasini ko‘rish mumkin. Adib o‘sha davr Qizil imperiya mafkurasiga qarama-qarshi tarzda ilohiy haqiqat mezoni sanalgan umuminsoniylik mafkurasini kitobxonning e‘tiboriga havola qilgan. Umumbashariy mafkura, ya’ni tabaqalar orasidagi bag‘rikenglik turkiy xalqlarning aslzodasi bo‘lgan o‘kuzbeklarda qadimdan mavjud bo‘lgan. Buni qahramonlik eposlari va xalq og‘zaki ijodi namunalaridan oson topish mumkin. Mumtoz adabiyotimizda esa Alisher Navoiy asarlarida ushbu mafkura oliy maqomga ko‘tarilgan. Shuning uchun ayrim adabiyotshunoslar Abdulla Qodiriy ijod qilgan milliy qahramonlarining yuksak darajadagi ruhiy olamini Alisher Navoiy “Xamsa”si obrazlaridagi ruhiy yuksaklikka qiyoslashadi.

Ikki ulug‘ alloma qayta umr bag‘ishlagan o‘kuzbekona milliy mafkura ruhiy mustaqillikning poydevori edi. Ushbu bebaho mafkura mustaqillik sari boshlangan yo‘limizni yorituvchi yo‘lchi yulduz bo‘ldi. Mazkur haqiqat hayotda aniq tasdig‘ini topdi va noyob mafkura davlatimizning bosh siyosatiga aylandi.

Abdulla Qodiriy romanlari o‘zbek adabiyotini badiiy tasvir borasida yuqori cho‘qqiga olib chiqdi. Bunday zahmatli mehnat orqali qo‘lga kiritilgan og‘ir va mashaqqatli ijod cho‘qqisi hali biror o‘zbek yozuvchisiga nasib qilgan emas. Chunki Alloh tomonidan berilgan bu ulug‘ ne‘mat faqatgina Abdulla Qodiriyga munosib ko‘rilgan. U o‘z ideallarini yuksak badiiy shaklda ifoda eta olgan yozuvchidir. Adib bitgan har bir satrdagi fikr alohida badiiy joziba kasb etgan. Matndagi har qaysi lug‘aviy birlikdan milliy tilning badiiy qudrati ufurib turadi. Til masalasida shaxsiyat bordir, siyosat bordir [Qodiriy 1969: 133], deydi adib.

So‘z ustasi ko‘p izlab, uzoq o‘ylab, keng mushohada asosida topgan ifodalari ohangrabodek kitobxonni o‘ziga maftun aylab o‘z izmiga soladi va allalab eritadi. Yozuvchi tasvirida fikr irmoqlari soylarga ulanib katta azim daryoni tashkil etgan. Aslida jo‘shqin soylardan tashkil topgan azim daryoning har doim *tagida qudratli oqim, sathida esa sokinlik* [Qo‘shjonov 1994: 122] bo‘ladi. Shu bois asarni o‘qib tugatgandan keyin ham turli voqealar ancha payt kitobxonni tark etmaydi, uning o‘y-fikrini band etib turaveradi.

Buyuk adiblarning yozuvchilik yo‘liga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular o‘z faoliyatini kichik asarlar yozish bilan boshlaganligiga guvoh bo‘lamiz.

O‘zbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy ham o‘z badiiy ijodiga jajji asarlar bitish bilan tamal toshini qo‘ygan. Adib dastlab she‘rlar, hikoyalar, ocherklar va hajviyalar yozgan. Yozuvchining hikoyalarida turli mavzular qalamga olingan. Abdulla Qodiriy “*hikoyani sersuv (o‘qilishli) qiladigan narsalardan biri ko‘rsatish o‘rniga so‘zlab berishdir*”, – deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, adib o‘zining ilk hikoyalarida ana shu qoidani me‘yoriga yetkaza olmaganligi ko‘zga tashlanadi. Abdulla Qodiriyning e’tiroficha: “*Haqiqiy yozuvchi bo‘lmoq uchun turmushni har tomonlama o‘rganish, buning uchun har sohalaridan xabardor bo‘lish kerak*”. Yana adib “*yozuvchi bo‘laman degan har bir kishi o‘zida turmushning mayda-chuydalarigacha kuzata oladigan qobiliyatni o‘stirishi kerak*”, — e’tirof etadi.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi o‘zbekona sehrli jozibaning omillaridan eng muhimi *uning tili* hisoblanadi. Adib uzoq vaqt asarlariga poydevor bo‘ladigan *milliy manba* qidirgan. Shuningdek, mumtoz tilimizga tegishli bo‘lgan jozibador, madaniy va go‘zal lug‘aviy birliklarni izladi. Yozuvchi *xalq og‘zaki ijodini* manba (Lafasov 2020: 1862) sifatida belgilab olgan bo‘lsa, noyob til boyliklarini uchala (*aslida ikkita sof o‘zbek va aralash o‘zbek*) lahjalarimiz hamda ularning zaxirasi hisoblangan shevalarimizdan qidirib topdi. Shu asnodda barcha shevalarimiz adabiy til uchun bitmas-tuganmas manba ekanligiga amin bo‘lgan holda buni amalda isbotlab, juda ko‘p leksik birliklarni adabiy tilimizga olib kirdi. Holbuki, adabiy tilimizda ularning o‘rni bo‘sh turgan edi, ana shu ochiqlikni to‘ldirishda Abdulla Qodiriyning xizmati beqiyosdir.

So‘z san’atkorining so‘z tanlashi xuddi mashhur rassom surat uchun rang tanlagandek yorqin aks etgan. Ushbu holatni adibning asarlarini o‘qiyotgan paytda chin dildan his qilasiz. Yozuvchi o‘zbekona sodda, mazmunli va badiiy so‘zlashuv tarzini romanlariga olib kirib, asarlari tilining jonli va hayotiylikni ta’minlagan. Buning uchun adibning shaxsan o‘zi xalq orasida yurib toqichilik, hunarmandchilik va uylarning tomini yopish kabi kasblar bilan shug‘ullandi. Qonida ajdodlarning dehqonchilik hunari jo‘sh urgan Abdulla Qodiriy mahalla chetidagi tashlandiq yerni tozalab obod qilgan va bog‘ yaratgan. Yozuvchi yoshligidan oddiy kishilar bilan juda yaqin munosabatda bo‘lgan. So‘z ustasining jismoniy mehnatdan rohatlanish hissi bilan tiniqlashgan aqli badiiy jihatdan mukammal, kitobxonni o‘ziga rom etadigan asarlarning yaratilishiga zamin bo‘ldi.

Abdulla Qodiriy ijod mas'uliyatini chuqur his qilgan so'z san'atkoridir. U o'ta darajada sinchkov va haqiqatni ilohiy darajada his qilgan shaxs edi. Adib o'z asari uchun dalil yig'ish maqsadida Qo'qon va Marg'ilonga borgan paytida romanda tasvirlanishi zarur bo'lgan joylar, ko'chalar va uylarning qurilish shaklini o'z ko'zi bilan ko'rgan, aniqlik uchun zarur o'rinlarda ular orasidagi masofasini ham o'zi odimlab o'lchab chiqqan. Hayotiy voqelikni yortish uchun dalillarni shaxsan o'zi tekshirgan va to'liq amin bo'lgandan keyingina asarida undan foydalangan. Yozuvchi asarlaridagi obrazlarning *prototip* (*ayni inson*)lari avvalo qarindoshlari, keyin tanish kishilarga qarab hayotiy haqiqatga tayanib yaratgan. Ana shu shaxslarning qandayligiga qarab o'sha timsollarni jonlantirgan.

Islom diniga oid manbalarga asoslanadigan bo'lsak [Ahmad Lutfi Qozonchi 2019: 38], payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) og'ir tabiatli, vazmin, o'ta mulohazali, teran fikrli inson bo'lgan ekanlar. U kishi insonlarning gultoji, Yaratgan ulug'lagan zot va boshqa takrorlanmaydigan kishi bo'lgan. Alloh yaxshi xislatlardan kimgadir ozgina yuqtirgan bo'lsa, o'sha inson ham rasuli akramning ba'zi sifatlarining uchqunlarini o'zida mujassam etgan odamdir.

Abdulla Qodiriy ham aql va mulohaza bobida payg'ambar xislatlaridan yuqqan kishilar sirasiga qo'shsak adashmagan bo'lamiz. Yozuvchi og'ir tabiatli, har bir ishda mas'uliyatni o'ta darajada his qiladigan kishi bo'lgan. Adib tinch va madaniyatli oilada tarbiya ko'rgan, avval milliy maktabda, keyin rus maktabida o'qigan. Oliy ta'limni madrasada olgan va sharq adabiyoti durdonalari bilan yaqindan tanishgan. So'ngra Moskvadagi Adabiyot institutida o'qib g'arb adabiyoti namunalariga qalbini oshno qilgan.

Abdulla Qodiriy har bir musulmon kabi islomiy farzlarni qo'ldan kelgancha mukammal bajarishga harakat qilgan. Shu bois o'z asariga kiritgan hayotiy hodisalar millatdoshlar uchun foydali ekanligini chin dildan his qilgan. Bu esa tasvirlangan voqealarning har jihatdan asosli hamda to'g'ri bo'lishini ta'minlagan. Abdulla Qodiriy ayblashga harakat qilgan yosh sho'ro tanqidchisi Sotti Husayn asossiz da'volar bilan chiqdi. Adib esa har qanday holatda bosiqlik bilan unga xayrixohlik shaklida javob qaytargan. Asossiz va noto'g'ri dalillarini ham nihoyatda ehtiyotkorlik bilan sharhlab bergan. Ayrim o'rinlarda Sotti Husaynning aniq kamchiliklarini ham uning "yoshligiga, tajribasizligi"ga havola qilgan

[Qo‘shjonov 1994: 124]. Bundan shu narsa ayon bo‘ladiki, adib o‘ziga va asarlariga nisbatan aytilgan yolg‘on tahdidga nisbatan ham ulug‘vorlik hamda olijanoblik bilan javob qaytargan. Shu asnoda o‘zi bitgan betakror san‘at durdonalariga esa mustahkam e‘tiqod vakili sifatida yuqori ishonch bilan qaragan.

Abdulla Qodiriy nihoyatda ehtirosli yozuvchi bo‘lgani bois u kishi voqealarni jozibali va ta‘sirli bayon qilgan. Tasvirda o‘zbekona jo‘shqinlik ustun ekanligi aks etib turadi. Qodiriydagi bu iste‘dodni Alloh yuqtirgani uchun u har bir so‘zga o‘zining qalb qo‘rini qo‘shgan holda matn bitgan. Shu bois adib biror voqeani yozar ekan, zarur bo‘lsa o‘zi kulgan, kezi kelganda o‘zi yig‘lagan. Bitganlaridan o‘z ta‘sirlana olgan yozuvchigina boshqalarning ruhiyatini junbushga keltira oladi. Bu holat Abdulla Qodiriyning imon-e‘tiqodli, to‘g‘riso‘z, insonparvar va vatanparvar insonligidan dalolat beradi. Adibning barcha shaxsiy fazilatlarini mustaqil vatanimiz yoshlariga o‘rnak bo‘la oladi. Barcha yoshlarimiz ulug‘ va benazir adibimiz Abdulla Qodiriydek Vatan uchun o‘z jonidan kecha oladigan, imon-e‘tiqodli, to‘g‘riso‘z, insonparvar va bolajon bo‘lishlar lozim. Shundagina ular mustaqil yurtimizga loyiq farzand bo‘la oladilar.

Abdulla Qodiriy o‘z romanlari bilan dunyodagi oltinchi o‘zbek milliy romanchilik maktabiga asos soldi [Qodiriy Xondamir 2004: 15]. Adibning romanlari O‘rta Osiyoda yashayotgan millatlar adabiyotida mazkur janrning ommalashishiga sabab bo‘ldi. Shu bois qardosh xalq so‘z san‘atkorlarining ko‘pchiligi Abdulla Qodiriyning o‘zlariga ustoz deb bilganlar. Qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov, turkman adiblari Berdi Kerboboev, Xidir Deryaev, tojik so‘z ustasi Jalol Ikromiy, qoraqalpoq yozari To‘lipbergen Qaepbergenov, qirg‘iz adibi Chingiz Aytmetov o‘z romanlarini ulug‘ o‘zbek so‘z zargari asarlaridan ilhomlanib yozganliklarini bayon qilishgan.

O‘zbek yozuvchilaridan Said Ahmad, Shuhrat, Mirmuhsin, Mirzakalon Ismoiliy, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Tohir Malik va shu kabi qalam sohiblariga ham Abdulla Qodiriy g‘oyibona ustoz sanaladi. Adib hajviyalar sohasida G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va Said Ahmadlarning ijod sohasidagi piri hisoblanadi. Ular adib tamal toshini qo‘ygan yuksak darajadagi satiralardan bahra olib mazkur janrni rivojlantirgan holda shu sohada qalam tebratdilar.

Abdulla Qodiriy ijod qilgan obrazlar kitobxonni o'ziga rom qiladi. Chunki yozuvchi ijod qilgan obrazlar katta-kichikligidan qat'i nazar hayotga uyg'un va ishonarli tarzda yaratilgan. Adib inson fe'l-atvoriga xos barcha jihatlarni qamrab olishga harakat qilgan va buning uchun tinmay, erinmasdan mehnat qilgan.

Abdulla Qodiriy o'zining romanlaridagi har bir voqelikni yoritish jarayonida *so'zlarni sinchkovlik bilan tanlagan* va o'sha vaziyatga mos *lug'aviy birliklarni qo'llagan*. Asardagi *she'riy parchalarni o'zi yozgan*. Bu esa uning yozuvchilik qobiliyati hamda *so'z qo'llash mahoratining betakror ekanligidan dalolat beradi*.

Abdulla Qodiriy o'zbek xalqining yashash tarzini yaxshi o'rgangan ijodkor bo'lgani bois millatimiz ruhiyatiga aloqador juda mayda urf-odatlarini ham iker-chikirigacha bayon qilgan. Milliy udumlar millatning turmush tarzi bilan bog'liq ekanligini chuqur anglagan ijodkor har qanday voqea tasvirida shu masalaga e'tibor qaratgan. Yozuvchi milliy ruhiyat aks etgan tasvirlar bilan kitobxonning qalbini zabt eta olgan. Bu boradagi har qanday qiyinchilikdan qo'rqmagan, tug'ma iste'dod sohibi bo'lgan adib milliy tarixiy roman janrida asar yozib, ushbu mas'uliyatli vazifani uddalagan. Adib mazkur urf-odatlarining millatimiz hayotidagi ijobiy va salbiy oqibatlarini ham e'tibordan qochirmagan holda ularga nisbatan munosabat bildirishni kitobxonga havola qilganligini romanlarni o'qigan paytda tushunish osondir. Abdulla Qodiriyning romanlari ko'proq shiddat bilan taraqqiy etadigan syujetlar asosida yaratilgan [Qo'shjonov 1994: 132]. Chunki har bir millat uchun eng zarur, keskin rivojlanishi uchun muhim va zarur jihat ham ana shu sanaladi.

Bizning xalqimiz, ya'ni rasul Nuh alayhissalomning duosini olgan sevimli o'g'li Yofas avlodi hisoblangan o'kuzbek (o'zbek)lar dushmanga nisbatan keskin va shiddatkor, do'stga nisbatan esa anchayin mulohazakor, og'ir tabiatli el hisoblanadi. Shu bois Yofas avlodlari tarixiy hayotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uch buyuk jahongir (Turkning ukasi bo'lgan Yabon avlodidan *Iskandar Maqduniy*, Turkning farzandlaridan *Temuchin Chingizxon* va *Amir Temur*) chiqqan.

Xulosa

XX asrning boshlarida jahonda yuz bergan keskin o'zgarishlar shiddatkorlikni talab etar edi. O'zining millati va ona tilini behad sevgan

jadid mutafakkirlar o'sha zamon chig'irig'iga qarshi bordilar. Ularning til va milliy mustaqillik borasidagi qarashlari hamda yozgan asarlari muhim ahamiyat kasb etdi. Jadidlar ta'lim sohasida ham jonbozlik ko'rsatib, millatni savodli qilish uchun maktablar ochishdi, juda ko'p o'quv qo'llanmalari va darsliklar chop etishdi. Mustabid tizim ularning bu ezgu ishlarini qadrlamadi. Chunki mustamlakachilar uchun savodli va o'z haququqini tanigan millat vakillari kerak emas edi. Ularga bo'yin egib xizmatini qiladigan, har joyda mavjud tizimni yoqlaydigan, qo'llab-quvvatlaydigan manqurt xodimlar zarur edi. Jadid ziyolilar ushbu tizim uchun xavfli dushman sanaldi. Shuning uchun millatning guli bo'lgan aqlli zotlar ayovsiz holda qatag'on domiga tortib yo'q qilindi.

XX asrning oxirida sobiq Ittifoqning tanazzul yuz tutganini anglab qaror qabul qilishda ham shiddatkorlik zarur bo'ldi. Buni chin dildan his qilgan birinchi prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston xalqini ozodlik sari boshlab, davlatimiz mustaqilligiga asos soldi. Aqlli rahbarning dono shogirdi esa Vatanimizni zamonaviy yuksalish sari boshlab ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishimizni ta'minlab bermoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, Abdulla Qodiriy o'sha davr farzandi bo'lgani bois o'z asarlarida millatimiz uchun doimo asqatadigan shiddatkorlik xislati va uning siyosiy ahamiyatini ham ochib bergan. Abdulla Qodiriyning nasriy asarlaridagi lingvopoetik vositalarni tadqiq qilish ona tilimizning beqiyos boyligini ko'rsatish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Задорнова В. Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: дис. ... д-ра филол. наук. — М., 1992. — 41 с.

Липгарт А. А. Основы лингвопоэтики. — М.: ЛЕНАНД, 2022. — 166 с.

Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: филол. фанлари доктори диссертацияси автореферати. — Тошкент, 2009. — 48 б.

Lafasov U. P. The King of Uzbek Prose // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. — 2020. — Vol. 24, Issue 05. — P. 1851–1862.

Қодирий Хондамир. Абдулла Қодирий (таърифи адиб). — Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2004. — 129 б.

Нурмонов А., Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. — Фарғона: ФарДУ, 2007. — 190 б.

Нурмонов А. Танланган асарлар. I жилд. — Тошкент: Академнашр, 2012. — 308 б.

Lafasov U. P. Nutq tovushlari lingvopoetik vosita sifatida // Ilm-fan xabarnomasi. Science Bulletin. Вестник науки. — 2025. — Vol. 10, Issue 1. — В. 537–549.

Husayn Sotti. O'tkan kunlar (haqida). — Toshkent–Baku: O'ZNASHR, 1931. — 149 б.

Шевердин М. Ўзбек йўқсул адабиётининг илк катта асари // Правда Востока. — 1931. — 15 январь.

Иззат Султон. Ёзувчи Абдулла Қодирий ҳақида // Қизил Ўзбекистон. — 1956. — 28 октябрь.

Мирзаев И. Абдулла Қодирийнинг ижодий эволюцияси. — Тошкент: Фан, 1977. — 86 б.

Қодирий А. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён: романлар. — Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. — 654 б.

Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги («Қодирийга армуғон»). — Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1994. — 76 б.

Қахрамонов А. Ё. Меҳробдан чаён романи поэтикаси: филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. — Тошкент, 2000. — 23 б.

Lafasov U. P. Okuzbeks, Their Language, Place in Society and Culture // İmgelem. — 2024. — Özbekistan Özel Sayısı. — P. 293–310.

Чориева З. Абдулла Қодирий «Ўтган кунлар» романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. — Тошкент, 2006. — 23 б.

Қодирий А. Кичик асарлар. — Т.: Ғ. Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. — 187 б.

Аҳмад Лутфи Қозончи. Саодат асри қиссалари. Интизор қутилган тонг. 1-китоб. — URL: <http://www.ziyouz.com> (мурожаат санаси: 23.06.2026). — 206 б.

References

Zadornova, V. Ya. (1992). Slovesno-khudozhestvennoe proizvedenie na raznykh yazykakh kak predmet lingvopoeticheskogo issledovaniya (A literary work in different languages as an object of linguopoetic research), Doctor's thesis, Moscow.

Lipgart, A. A. (2022). Osnovy lingvopoetiki (Fundamentals of Linguopoetics), Moscow, LENAND.

Yuldashev, M. (2009). Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi (Linguopoetic study of literary text), Extended abstract of Doctor's thesis, Tashkent.

Lafasov, U. P. (2020). International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(5), 1851–1862.

Qodiriy, X. (2004). Abdulla Qodiriy (ta'rifi adib) (Abdulla Qadiri: Portrait of a Writer), Tashkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi.

Nurmonov, A., & Iskandarova, Sh. (2007). Umumiy tilshunoslik (General Linguistics), Fergana, FarDU.

Nurmonov, A. (2012). Tanlangan asarlar. I jild (Selected Works. Vol. 1), Tashkent, Akademnashr.

Lafasov, U. P. (2025). Ilm-fan xabarnomasi. Science Bulletin. Vestnik nauki, 10(1), 537–549.

Sotti, H. (1931). O'tkan kunlar (haqida) (About Bygone Days), Tashkent, Baku, O'ZNASHR.

Sheverdin, M. (1931). Pravda Vostoka, January 15.

Sulton, I. (1956). Qizil O'zbekiston, October 28.

Mirzaev, I. (1977). Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi (The Creative Evolution of Abdulla Qadiri), Tashkent, Fan.

Qodiriy, A. (1994). O'tkan kunlar. Mehrobdan chayon (Bygone Days. Scorpion from the Altar), Tashkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

Qo'shjonov, M. (1994). O'zbekning o'zligi (Qodiriyga armug'on) (Uzbek Identity. Tribute to Qadiri), Tashkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi.

Qahramonov, A. Yo. (2000). Mehrobdan chayon romani poetikasi (Poetics of the Novel "Scorpion from the Altar"), Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent.

Lafasov, U. P. (2024). Imgelem, Özbekistan Özel Sayısı, 293–310.

Chorieva, Z. (2006). Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romanidagi maktublarning lug'aviy-ma'naviy va uslubiy xususiyatlari (Lexical, Semantic and Stylistic Features of Letters in Abdulla Qadiri's Novel "Bygone Days"), Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent.

Qodiriy, A. (1969). Kichik asarlar (Minor Works), Tashkent, G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.

Qozonchi, A. L. (n.d.). Saodat asri qissalari. Intizor kutilgan tong. 1-kitob (Stories of the Age of Happiness. The Awaited Dawn. Book 1), available at: <http://www.ziyouz.com> (accessed 23.06.2026).